

ARAB TILIDA ANIQLASHTIRUVCHI CHEKLOV VA UNING SINTAKTIK HAMDA SEMANTIK TAHLILI

SPECIFYING RESTRICTION IN THE ARABIC LANGUAGE AND ITS SYNTACTIC AND SEMANTIC ANALYSIS

Jumaniyazov Mansur Davletbayev

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilidagi aniqlashtiruvchi cheklovning sintaktik va semantik xususiyatlari tahlil qilinib, arab tilshunos olimlarining bu masala borasidagi ilmiy qarashlari yoritiladi. Shuningdek, mavzuga oid bir qator klassik grammatik manbalardan misollar keltirilib, aniqlashtiruvchi cheklovning til tizimidagi o'rni va ahamiyati izohlanadi.

Kalit so'zlar: Tamiyz; cheklov; aniqlashtiruvchi; she'riy bayt, tushirib qoldirish, Izofa; ismi tafzil

Abstract. This article analyzes the syntactic and semantic features of specifying restriction in the Arabic language and presents the scholarly views of Arab linguists on this issue. In addition, examples from a number of classical grammatical sources are provided, and the role and significance of specifying restriction within the linguistic system are explained.

Keywords: tamiyz; restriction; specification; poetic verse; ellipsis; idāfa; ism al-tafzīl.

Аннотация. В данной статье анализируются синтаксические и семантические особенности уточняющего ограничения в арабском языке, а также освещаются научные взгляды арабских лингвистов по данному вопросу. Кроме того, приводятся примеры из ряда классических грамматических источников и разъясняется место и значение уточняющего ограничения в языковой системе.

Ключевые слова: тамйиз; ограничение; уточнение; поэтический бейт; опущение; изафет; исм ат-тафдиль.

Ma'lumki, arab tilda gapning "ikkinchi darajali bo'laklari", degan tushuncha yo'q. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari jumladagi "qo'shilmalar" hisoblanib, ular gapni faqat kengaytirishga xizmat qiladi. O'zbek tilida ikkinchi darajali bo'laklar "gap bo'laklari" mavzusida o'rganilsa, arab tilida turli grammatik mavzular ichida yoritilgan. Masalan, aniqlovchi, "so'z birikmasi sintaksisi" mavzusida "al-murakkabat-murakkab birikmalar" nomi bilan ataluvchi bo'limining ichida o'rganilsa, to'ldiruvchi va hol arab grammatikasiga oid asl manbalarda "al-mansubat, ya'ni tushum kelishigida turuvchi ismlar" mavzusida yoritiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, arab tilida to'ldiruvchi va hol kelishiklar mavzusida bayon qilinayapti. Shuningdek, bu tilda aniqlovchi, to'ldiruvchi va holdan tashqari yana ba'zi ikkinchi darajali bo'laklar, ya'ni qo'shilmalar borki, ular boshqa tillarda uchramaydi. Ana shunday bo'laklardan biri, bu biz quyida ilmiy tadqiq qiladigan "tamiyz-cheklov"dir.

Gap bo'laklaridan bo'lgan tamyiz arab tiligagina xos bo'lib, boshqa tillarda uchramaydi. O'zbek tilidagi ba'zi manbalarda bu termin "cheklov" ba'zilarida esa "cheklash" deb beriladi.

Cheklash bu arab tilidagi kesimning xarakterini izohlashda aniqlik kiritish yoki aniq (konkret)lashtirish niyati bilan qo'llaniladi. Cheklash vazifasini ot bajaradi. U kesimdan so'ng qo'yiladi. Cheklash vazifasini bajarayotgan so'z gapda noaniq holatda, tushum kelishigida bo'ladi. Masalan:

Yigitcha aqli bilan ajralib turardi – إمتاز الشاب عقلا

Misoldan ham ko'rinib turibdiki, cheklash vazifasini bajarayotgan ot, kesim mazmuniga aniqlik kiritgan.

O'zbek arabshunoslari N. Ibrohimov va M. Yusupovlarning "Arab tili grammatikasi" nomli darsliklarida bu mavzu cheklov, deb nomlanib, u shunday bayon qilinadi: Cheklov bo'lib kelgan so'z odatda gapning egasi va kesimidan keyin yoki gapning so'ngida noaniq holatda nasb holatida keladi. Bunda gapning kesimi ot kesim yoki fe'l kesim bo'lib kelishi mumkin. Cheklov gapning ega, kesimi bilan jinsda va sonda moslashmaydi. Masalan:

Mahmud go'zal yuzlidir – محمود حسن وجهًا

(so'zma-so'z: Mahmud yuzi jihatdan yaxshidir).

محمود حسن خلقًا - Mahmud yaxshi xulqlidir.

(so'zma-so'z: Mahmud xulq jihatdan yaxshidir).

Endi arab nahvchilari bu kategoriyaga qanday ta'rif berishganini bilish maqsadida asl arab manbalariga murojaat qilsak.

"Al-unmuzaj fi n-nahv" asarida cheklash (cheklov) mavzusi shunday bayon qilingan: "Cheklash-butun bir gapdagi mavhumlikni yo'qotadi (ya'ni, gapning ma'nosini konkretlashtirish, cheklash uchun xizmat qiladi) va tushum kelishigida bo'ladi."

Cheklov quyidagi ma'nolarda ishlatiladi:

1. Cheklov gapdagi mavhumlikni yo'qotadi, ya'ni gapning kesimi ishora qilgan ish-harakatni qaysi jihat yo nimga nisbat ekanligini aniqlashtiradi. Masalan: Idish suvga to'ldi – امتلأ الإناء ماءً (so'zma-so'z: Idish to'la bo'ldi suv bilan). Bu fe'liy gap bo'lib, unda "to'ldi" fe'l-kesim, cheklov so'zi yordamida idishni "suvga" (boshqa narsa bilan emas) to'lganiga aniqlik kiritayapti.

Cheklov gapning kesimi qiyosiy yoki orttirma darajadagi sifatdan iborat bo'lganida ham ishlatiladi. Masalan:

U mendan yoshroq – هو أصغر مني سنًا

(so'zma-so'z: U mendan yosh jihatdan kichikroqdir).

U mendan pastroq – هو أصغر مني قامَةً

(so'zma-so'z: U mendan bo'yi jihatdan kichikroqdir).

Quyidagi misolga ham e'tibor beraylik.

صدر الخرفى قرارًا بذلك باعتبار أن د. النون هو أكبر النواب الموجودين في البلاد سنًا ولم يخرجوا في اجارة.

"Al-Xurofiy doktor An-Nuunni mavjud o'rinbosarlar ichida yoshi jihatidan eng kattasi ekanligini hamda hecham ta'tilga chiqmaganini e'tiborga olgan holda bu qarorni chiqardi".

درهما cheklangan soʻzdan oldinga oʻtishi joiz boʻlmaydi. Masalan: درهما عشرون “dirham yigirma” deb, “cheklov” boʻlgan درهما soʻzini cheklangan soʻzdan oldinga chiqarish mumkin emas. Shu oʻrinda oʻtgan mavzularda takrorlanmagan, alloma buni oʻz asarida koʻp qoʻllamagan bir uslubga duch kelinadi. Yaʼni “cheklov”ning boshqa toʻldiruvchilar kabi egadan va feʼldan oldin kela olmaslik masalasida olim oʻz qarashini emas Sibavayhning talqinini keltiradi. إذا انتصب المميز عن – الفعل لأن المميز فاعل في المعنى و لا يجوز تقديم الفاعل على الفعل – “Agar cheklov feʼldan cheklangan boʻlsa, u foil maʼnosida boʻladi va foilning feʼldan oldinga oʻtishi joiz boʻlmaydi”. Lekin Mubarrad cheklov boshqa tushum kelishigidagi ismlarga qiyosan joiz, deb quyidagi tavil vaznidagi sheʼrni keltiradi.

أتهجر ليلي بالفراق حبيبها
و ما كان نفسا بالفراق تطيب

*Laylo ajralish bilan oʻz sevgilisini tashlab ketadimi
U firoqda nafs jihatidan yaxshi boʻlmagan holda.*

Yuqorida keltirib oʻtilgan maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki “cheklov” arab tiliga xos boʻlgan grammatik kategoriya boʻlib, u gapning kesimini aniqlashtirish uchun, ogʻirlik, hajm, masofani ifodalovchi oʻlchov birliklaridan hamda sondan keyin ishlatilar ekan. Cheklov boʻlib kelgan soʻz odatda gapning egasi va kesimidan keyin yoki gapning soʻngida noaniq holatda nasb holatida keladi. Cheklov gapning ega, kesimi bilan jinsda va sonda moslashmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. –Namangan: Ibrat, 2009.
2. Talabov E. Arab tili. –T.: Oʻzbekiston, 1992.
3. Qosimova S.S. Hamiduddin Daririyning “Muqaddima” asari: matn va tadqiq. – T.: ToshDSH, 2014.
4. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osveshenii. – M.: “Vostochnaya literatura” RAN, 1998.
5. Hifni Nosif. Ad-durusin-nahviya. –Iskandariya: Darul-aqida, 2007.
6. Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-eʼrāb, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 10518-raqamli qoʻlyozma.